ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SHEVALARDAGI AYRIM FONETIK-FONOLOGIK BELGILAR (Janubi-g'arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida)

Darvishov Ibrohim,
Namangan davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Shevalarining til xususiyatlarini o'rganishda o'zbek dialektologiyasining o'z an'analari, o'ziga xos asos va tamoyillari bor.

Ma'lumki, jonli til tarixiy yodgorlikdir. P.M.Melioranskiyning jonli xalq shevalari adabiy tilning yozma yodgorliklariga nisbatan ham qadimiyroq tarixiy manbadir[1], degan fikri barcha o'zbek shevalariga ham taalluqli.

Namangan viloyati dialektlari fonetik strukturasining o'zgachaligi bilan boshqa o'zbek shevalaridan farqlanadi.

Til xususiyatlariga ko'ra mazkur hududda o'zbek tilining:

1) qipchoq tip *(To'raqo'rg'on, Mingbuloq, Pop tumanlari qishloqlari);*

2) qipchoqlashgan qarluq (aralash) tip *(Migbuloq tumani Jomashov, Gulbog', Damko'l, Madyarovul (Uychi) qishloqlari);*

3) qarluq *(Namangan tumani Qoratepa, Toshbuloq, Mullakuding qishloqlari)* tip shevalariga mansub aholi yashaydi[2].

Janubi-g'arbiy Namangan dialektida miqdor jihatidan qipchoq lahjasi unsurlari qarluq lahjasi unsurlardan ko'pligi bilan xarakterlanadi. Bu esa hududda etnik jihatdan qipchoqlarning qarluqlarga nisbatan avvalroq o'troqlashganligini ko'rsatadi.

Janubi-g'arbiy Namangan dialektining fonetik-fonologik sathida umumqipchoq yoki aynan mazkur shevalargagina xos bo'lgan belgi-xususiyatlar mavjudki, quyida ularning ayrimlari haqida fikr yuritamiz.

1. Janubi-g'arbiy Namangan dialektining qipchoq shevalarida unli va undosh fonemalarning miqdoriy va sifat belgilari o'zbek tilining boshqa qipchoq shevalaridan deyarli farqlanmaydi. Hudud shevasida 9 ta unli, 22 ta undosh fonema mavjud bo'lib, ular o'zining miqdor va sifat belgilari bilan markaziy tayanch shahar shevalaridan farq qiladi[3].

2. Janubi-g'arbiy Namangan dialektining qipchoq sheva vakillari tarkibi «y»lovchi va «j»lovchilardan iborat.

Turkiy tillardagi «y»lashish va «j»lashish masalasida uzoq yillik «ularning qaysi biri birlamchi?» degan savolga haligacha aniq bir javob, ilmiy fikrlar, xulosa yoki to'xtam yo'q. Shunday bo'lishiga qaramay, bu masalani ma'lum darajada yoritishga bag'ishlangan ilmiy ishlar e'lon qilingan[4].

Mazkur dialekt tarkibidagi shevalarda ***j*** affrikatining qo'llanish doirasi bir xil emas. Hududning *Qurama* (To'raqo'rg'on t.), *Kenagas, Qoraqalpoq* (Pop t.), *Nayman* (Pop t. Mingbuloq t.), *Momoxon, Qolg'andaryo, Beshserka, Qayrog'ochovul, Chordona, Ingichka, Qirqchek,* (Mingbuloq t.) guruh shevalarida so'z boshida ***y*** o'rnida ***j*** ishlatiladi. Bu yirik qishloqlar aholisi, asosan, Sirdaryo oqimining chap sohilida istiqomat qiladilar[5]. Ularni biz JG'N dialektining «j»lovchi guruhga kiritdik. Janubi-g'arbiy Namangan qipchoq shevalarining fonologik jihatlarini yoritishda ***j*** affrikati hal qiluvchi belgilardan biri ekanligi haqidagi qarashlarga tayanamiz[66]. Namangan shahriga yaqinlashgan sari «j»lashish-

[1] Мелиоранский П.М. Араб-филолог о турецком языка. – Спб, 1900. – С .2.

[2] Бу ҳақида қаранг: Дарвишов И. Жануби-ғарбий Наманган диалектик ареали ва унинг айрим фонетик ва морфологик хусусиятлари. Til va adabiyot ta'limi журн. – Тошкент, 2014. 11-сон. – Б. 38.

[3] Поливанов У.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Узгосиздат, 1933. – С 20-21. Решетов В.В. Ўзбек шеваларининг классификацияси // "Ўзбек тили ва адабиёти", 1966, 1-сон. – Б. 3-14. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўздавнашр, 1967. – Б. 51. Ashurboyev S. O'zbek dialekto-logiyasi. – Toshkent: TDPI, 2013. – B. 16.

[4] Абдуллаев Ф.А. Фонетика. – С. 192; Гаджиева Н. З. Проблсма тюркской ареальной лексики. – С. 261-270. Муҳаммаджонов.Қ. Жанубий Қозоғистон ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 14.

[5] Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины. – Нукус: Каракалпакское государственное издательство, 1959. – С. 27. Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 9.

[6] Решетов В.В. Узбекский язык. – С. 252. Ишаев А. Фонетические особенности мангитского говора узбекского языка. АКД. – Ташкент, 1962. – С. 16; Алиев А. Ю. Уйчинский говор узбекского языка. АКД. – Ташкент, 1960. – С. 7; Насиров Ш. Кокандский говор узбекского языка. – Ташкент, 1965. – С. 5; Дмитриев Н.К.Неустойчивое положение сонорных р, л, н в тюрских языках. – С. 279.

ning izi yo‘qolib boradi, biroq Namangan shahar shevasiga ham «j»lovchi guruh shevasi o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Namangan shahrida **yurmoq** fe’li ***jur*** tarzida qo‘llanadi: ***juruna –*** yuringlar, ***jur kettu –*** yur ketdik kabi. «Y»lovchilarga ham bu holat o‘z ta’sirini o‘tkazgan: ***jun –*** yung, ***juma-juma –*** yuma-yuma, ***jirilib –*** yirilib *(matoning sitilishi),* ***jiyilgan*** – mijig‘langan // g‘ijimlangan *(distant metateza),* ***jo‘y –*** yo‘ymoq kabi. Bizningcha, bunday fonetik jarayonning yuzaga kelishining sababi janubi-g‘arbiy Namangan sheva vakillari va viloyatning barcha aholisi bir-birlari bilan qadimdan uzviy iqtisodiy va madaniy aloqada bo‘lganliklaridir.

3. Shevada ba’zi hollarda ***j>ch*** hodisasi ham uchraydi: ***cho‘ja –*** jo‘ja***, jichcha // chichcha –*** ozgina, ***chumak –*** jo‘mrak, ***kelachak –*** kelajak kabi.

4. Adabiy tilda va tayanch shahar shevalarida adabiy orfografik **o‘, u** unli fonemalari konvergentsiyaga uchragan bo‘lsa, janubi-g‘arbiy Namangan dialektining qipchoq shevalaridagi ***o‘*** va ɵ, hamda ***u*** va ɣ lar mustaqil fonema sifatida ma’no farqlash xususiyatiga ega: ***o‘t*** (ot – olov, o‘simlik: ***tandirga o‘t qo‘y*** – *tandirga olov yoq,* ***o‘tti o‘rip qo‘y*** – *o‘tni o‘rib qo‘y)*; ɵt (fe’l – o‘tmoq: arixtan sahlap o‘t – ariqdan sakrab o‘t); ***un*** (bug‘doy mahsuloti), ɣn – ovoz: ***ung‘o azraq suv quy, bo‘shop ketadi*** – *unga ozroq suv quy (xamir) bo‘sh bo‘lib qoladi,* ***unindi ɵchir –*** *uningni (ovozingni) o‘chir*), ɣn (fe’l – unmoq (o‘smoq): ***bayda hishtama ɣmmaydi*** – *bu erda hech nima unmaydi (o‘smaydi)* kabi.

5. Tayanch shahar shevalarida va adabiy tilda umumturkiy a unlisi ə<a>o tipida divergentsiyaga uchragan. Janubi-g‘arbiy Namangan dialektining qipchoq shevalarida umumturkiy a: ayaq, aziq, ahsaq tarzida saqlanmagan, balki adabiy orfografik o fonemasiga so‘z boshidagina mos keladi: onor – anor, ohsoq – oqsoq, oziq – oziq, omo – ammo kabi. Shevada singarmonizm qonuniyati amaldaligi uchun birinchi bo‘g‘in tarkibidagi o ga keyingi bo‘g‘indagi unlilar moslashadi: ***poxto*** – paxta, ***monti*** – manti, oriq – ariq, ***boliq*** – baliq, ***qotiq*** – qatiq, ***toxto*** – taxta, kabi; yoki: ***boromon*** – boraman, ***qolomon*** – qolaman, ***tollor*** – tollar, ***chollor*** – chollar, ***bollor*** – bolalar kabi.

6. Janubi-g‘arbiy Namangan dialektining qipchoq shevalarida unlilar cho‘ziqlik va qisqalik belgisi bo‘yicha so‘z ma’nosiga uslubiy ma’no beradi:

a) oddiy cho‘ziqlik oddiy darajani, ikkilamchi cho‘ziqlik sifatning orttirma darajasini hosil qiladi: «y» lovchilarda: ***katta –*** ka:ta, «j» lovchilarda: ***irik – iri:k*** – o‘ta katta, yirik, ***uzoq – uzo:q –*** juda olis, juda uzoq, ***muz*** – ***mu:z*** – rosa sovuq, ***qaynoq*** – ***qa:ynoq*** – o‘ta issiq, ***ja*** – ***ja:*** – juda, ***gupu-gu:ppi*** – chorpahil (to‘ladan kelgan) odam, ***jichcha – ji:chcha*** – picha, o‘ta va juda oz;

b) buyruq-istak maylidagi fe’llarning ma’no qirralarini farqlashga xizmat qiladi: ***bor*** (sof buyruq – bor) ***// bo:r*** (yalinish – borgin), ***o‘qi // o‘qi:*** (o‘qigin), ***yoz*** – ***yo:z*** (yozgin), ***yoza:y*** (yozay), ***chiq*** – ***chi:q*** (chiqqin), ***qoro*** – qoro: (qara, ko‘rgin) kabi.

7. Dialekt «y» lovchi guruh shevalarida ***g‘>v, b>v, p>v, g>y*** almashinuvi kuzatiladi: sov – sog‘ (ot, fe’l), ***bov*** (bog‘lik **–** ot, son**–**numirativ), ***lov*** – lab, ***tov*** –tob (issiq ma’nosida), ***divar*** – deb yubor, ***teva*** – tepa, ***sɵv*** – sep, ***tov*** – top (fe’l), ***tuyun*** – tugun, ***siyir*** – sigir kabi; «j» lovchilarda esa, «y» lovchilardan farqli holatda: ***u > ɵ: hɵkimat*** – hukumat, ***hɵnar*** – hunar kabi hodisa kuzatiladi. Bundan tashqari intervokal holatda ***p> b*** ga o‘tishi: ***qobi*** – qopi, ***ko‘bi*** – ko‘pi kabi holatlar barcha o‘zbek qipchoq shevalaridagi kabidir.

8. Janubi-g‘arbiy Namangan dialektining qipchoq shevalarida ayrim so‘zlardagina so‘z boshida ***[t]>[d]*** jaranglashadi. «Y»lovchilarda:: ***dovush*** – tovush; ***tumoloq – dumoloq*** – yumaloq; «j»lovchilarda: ***tolo*** – dala, ***to‘ppi*** – do‘ppi kabi, biroq barcha o‘zbek qipchoq shevalaridagi mavjud bu hodisa boshqa[17] qipchoq shevalaridagidek ko‘pchilikni tashkil etmaydi.

9. O‘zbek tilshunosligiga oid adabiyotlarda o‘zbek tilida ma’lum fonemaning shakli darajasida diftong yo‘q, deb e’tirof etiladi. Biroq nutq oqimida yuzaga keluvchi va o‘zlashgan so‘zlar tarkibida kelib qolgan yoki ularning o‘zlashtirilishi kechimida shakllangan diftonglar mavjud. U jips talaffuz etilgan yondosh unlidir. Bunday so‘zda jips talaffuz etiluvchi yondosh unlilarni tilshunoslikda diftong nomi bilan atab: «ikki unlining bir bo‘ginda birikib kelishidir»- deb izohlanadi[28]. Ularning artikulyatsiyasida ham o‘ziga xos tomoni bor. CHunonchi, har bir tovush artikulyatsiyasida uch faza: ekskursiya, kechim, rekursiya fazalari bo‘ladi. O‘zbek tilidagi so‘zlar tarkibida esa, odatda, unlilar qator, yonma-yon qo‘llanmaydi va u so‘zning bo‘g‘inlaridan biri markaziga o‘rnashadi, uning eng baland nuqtasi hisoblanadi. Uning oldidagi undoshning artikulyatsion rekursiyasi shu unlining artikulyatsion ekskursiyasiga, shu unlining artikulyatsion rekursiyasi keyingi undoshning artikulyatsion ekskursiyasiga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun, bo‘g‘in tovushlari o‘zaro tutashgan holda bir butunlikni olib

[1] Дмитриев Н.К. Вставка выпадений гласных и согласных в тюрских языках. ИСГТЯ.I. – С. 281; Абдуллаев Ф. Фонетика. – Ташкент. – С.73; Ишаев А. Манғит шевасининг баъзи бир фонетик хусусиятлари. ЎДМ. II. – Б. 36; Муҳаммаджонов.Қ. Жанубий Қозоғистон ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 14.

[2] Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Ташкент: Фан, 2013. – Б. 78.

talaffuz etiladi. Biroq bu tovushlar o‘rtasidagi birining ustida biri berilgan artikulyatsion rekursiya va ekskursiyalar bo‘g‘indagi tovushlarning talaffuz etilishida aniqlik, yaqqollik, alohidalikni ta’minlaydi[19].

Janubi-g‘arbiy Namangan hudud qipchoq shevalarida ***[r]*** fonemasi bilan boshlanuvchi olinma so‘zlardan ***ʷo‘ris*** – rus so‘zida, sandxi holatlarda: ***həʷo‘la –*** o‘la qol, ***hoyronʷo‘ldim –*** hayron bo‘ldim, ***qo‘yʷ***ərəv **–** qo‘yib yubor, odoʷəld’ – ado bo‘ldi kabi bir qator birliklarda diftonglashish hodisasi uchraydi. Lekin bu fonetik jarayon mazkur dialektal arealda juda sanoqli tub so‘zlar doirasida amal qiladi, ko‘plab qipchoq tip dialektlaridagidek[210] (***ʷo‘raza,*** ***ʷ***ərozo – ro‘za, ***ʷo‘ramol*** – ro‘mol, ***ʷirizo*** – rizo, rozi, kabi) umumiy tus olmagan. Biroq, yuqoridagidek, sandxi holatlar doirasida ular miqdori ko‘proq.

10. Praga lingvistik maktabining fonologik kontseptsiyasi bo‘yicha, bir xil qurshovda erkin almashinish munosabatida bo‘lgan ikki tovushning biri o‘rnida ikkinchisining kelishi ma’noga ta’sir etmasa, bu tovushlar bir fonemaning ikki varianti hisoblanadi. Odatda erkin almashinish munosabatida muayyan belgisiga ko‘ra o‘zaro yaqin bo‘lgan tovushlar bo‘ladi. Masalan, *t-d, k-g* kabi. *Solishtiring:* ***tovush-dovush; do‘ppi-to‘ppi; -kina -gina; -ga, -ka, -qa*** kabilar.

Lekin ma’lum umumiy belgiga ega bo‘lmagan tovushlar bunday munosabatga kirishmaydi.

Shunisi xarakterliki, janubi-g‘arbiy Namangan shevalarida ana shunday tovushlarning ham o‘zaro erkin almashish distributsiyasi kuzatiladi. Xususan, ***s, sh, ch, t*** undoshi lokallik belgisiga ko‘ra ham, akustik belgisiga ko‘ra ham, paydo bo‘lish usuliga ko‘ra ham bo‘g‘iz undoshi bo‘lgan ***h*** ga o‘xshamaydi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, so‘zning turli pozitsiyalarida bu tovushlarning o‘zaro ma’noga ta’sir etmagan holda erkin almashinishi kuzatiladi. Turkiy so‘zlarda **- s//h:** ***enahi –*** onasi, otohi – otasi, ***bolohi*** – bolasi kabi Bu jihatdan sheva turkiy tillar oilasiga mansub boshqird tiliga xos bo‘lgan xususiyatni o‘zida namoyon qiladi. Boshqa turkiy tillarda uchinchi shaxs egalik shakli ***-si,*** boshqird tilida doimo ***-hi*** shaklida qo‘llaniladi[311]. Shuningdek, so‘z boshi va o‘rtasida *s* undoshining *h* undoshiga almashinishi kuzatiladi. Masalan, *soqol-hokal, oqsoqol-oqhokal*[412] kabi.

So‘z boshida bir bo‘g‘inda ikki undoshli o‘zlashma – olinma so‘zlarni o‘zbek tili fonetik qonuniyatiga moslashtirish, talaffuz qulayligiga erishish harakati tufayli unli oldidan yana bir ***h*** undoshi orttiriladi: ***histaj*** – staj, ***histadiyon*** – stadion, ***histanok*** – stanok, ***histakan*** – stakan, ***hustuden*** – student kabi; **sh//h:** ***mohiyna****–mashina,* ***homg‘olot*** – shamg‘alat, ***hilpiq*** – shilpiq, ***hishirmoq*** – shishirmoq kabi; ***ch//h: hohchoymo***– chaqchayma, ***hakanlama–*** chakanglama, ***hovdish –*** choyjo‘sh, ***hiramma –*** chiranma, ***ho‘kkalamoq –*** cho‘kkalamoq kabi. Hudud shevalarida so‘z oxiridagi ***sh*** va ***ch*** undoshi o‘rnida **h** undoshining qo‘llanishi kuzatilmaydi.

Ayrim hollarda til oldi, jarangsiz, ***t*** undoshi ham bo‘g‘iz, sirg‘aluvchi ***h*** undoshiga almashtiriladi. **t//h:** ***o‘hlatmoq–***o‘tlatmoq, ***qahnamoq –*** *qatnamoq,* ***ihtivar –*** itqib yubor *(irg‘itmoq)* kabi[513].

Bu dalillar shuni ko‘rsatadiki, janubi-g‘arbiy Namangan shevalarida ***h*** undoshi juda faol qo‘llanadi va turli pozitsiyalarda ***s, ch, sh, t*** undoshlari o‘rnida almashinib kela oladi. Bu esa sheva vakillarining buyuk Mahmud Koshg‘ariy mansub bo‘lgan turkiy sheva bilan genetik bog‘liqligini ko‘rsatadi. CHunki u o‘zini unli bilan boshlangan so‘zlar oldiga ***h*** undoshini orttirib qo‘llaydigan uruqqa mansubligini ko‘rsatgan edi[614].

Voqealar ro‘yobi mohiyatni yoritigani kabi, sheva xususiyatlarini o‘rganish orqali umumo‘zbek tilining tabiati ochiladi. Shunday ekan, o‘zbek shevalarini to‘liq o‘rganmasdan turib umumo‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari haqida atroflicha fikr yuritish mumkin emas.

Sheva materiallari bizga o‘zbek xalqining etnogenetik, etnografik xususiyatlari haqida qimmatli ma’lumotlar beradiki, bunday ma’lumotlarni boshqa hech bir manbadan ololmaslik mumkin.

Namangan viloyatining janubi-g‘arbiy hududida joylashgan qishloq shevalarida o‘zbek tilining boshqa shevalarida uchramaydigan yoki kam uchraydigan o‘ziga xos fonetik xususiyatlar kuzatiladiki, bunday hodisalarni tahlilga tortish, ro‘y berish pozitsiyalarini aniqlash va sabablarini yoritish umumo‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini ob’ektiv yoritishda katta ahamiyatga ega.

---

[1] Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Ташкент: Фан, 2013. – Б. 80-81.

[2] Дмитриев Н.К. Вставка выпадений гласных и согласных в тюрских языках. ИСГТЯ.I. – С. 281; Абдуллаев Ф. Фонетика. – Ташкент. – С.73; Ишаев А. Манғит шевасининг баъзи бир фонетик хусусиятлари. ЎДМ. II. – Б. 36; Муҳаммаджонов.Қ. Жанубий Қозоғистон ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1981; Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Ташкент: Фан, 2013.

[3] Грамматика башкирского литературного языка. – Уфа, 1981. – С.12

[4] Грамматика башкирского литературного языка. – Уфа, 1981. – С.85.

[5] Бу ҳақида қаранг: Дарвишов И. Ўзбек тили ва адабиёти журн. – Тошкент, 2014. 3-сон. – Б. 77.

[6] Кошғарий Маҳмуд. Девону луғатит турк. – Тошкент. 1-жилд. 1963 – Б. 17.

Rezyume. Maqolada janubi-g‘arbiy Namangan dialektlarining arealidagi shevalarning ayrim fonetik-fonologik xususiyatlari, jumladan, fonemalarning miqdoriy va sifat belgilari, diftonglashish, intervokal holat affrikat, konvergentsiya, divergentsiya, oddiy cho‘ziqlik, ikkilamchi cho‘ziqlik haqida fikr yuritiladi.

Resume. Some phonetic-phonological peculiarities, as well as, collective and qualitative marks of phonemes, diphthongization, intervocalic substance, affricates, convergence, divergence, simple length, secondary length. of south-western dialects of Namangan dialectal areal are given in this article.

Резюме. В статье предоставлено мнение об особенностях некоторых фонетико-фонологических знаков, в том числе, количественные и качественнее значения фонем, дифтонгизация, интервокальное положение, аффриката, конвергенция, дивергенция, обычная долгота, удвоенная долгота фонем в юго-западных Наманганских диалектов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ТЕОРИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ КАК ИНСТРУМЕНТ АНАЛИЗА СТИЛИСТИЧЕСКИХ ПРИЁМОВ

Панжиева Насиба Нармахматовна,
Термезский государственный университет,
доцент кафедры английского языка и литературы

В середине 1990-х годов в -развитие теории концептуальной метафоры получила своё продолжение теория концептуальной интеграции (или теория блендинга), также известная как «теория концептуального слияния», авторами которой считаются М. Тернер и Ж. Фоконье[1]. Основная идея данной теории заключается в том, что она опирается на взаимодействие нескольких концептуальных пространств, в результате чего формируются новые смыслы. Концептуальная интеграция строится на так называемой «модели четырёх пространств» (four-space model), включающей два исходных ментальных пространства (input spaces), обобщённое пространство (generic space) и интегрированное пространство (blended space или blend). В процессе их взаимодействия создаются новые концептуальные значения. Иными словами, бленд представляет собой новое смысловое образование, возникающее в результате интеграции указанных концептуальных доменов.

Согласно О.К. Ирисхановой, основой концептуальной интеграции является когнитивная способность человека, проявляющаяся в умении творчески преобразовывать уже существующие ментальные конструкции и формировать новые[2]. В процессе концептуальной интеграции происходит объединение таких ментальных образований, как концепты, фреймы, концептуальные элементы и иные ментальные пространства, что способствует формированию целостных когнитивных процессов. Анализ научных источников, посвящённых теории концептуальной интеграции, показывает наличие более сложной её модели – так

[1] Fauconnier G. Turner M. The way we think: Conceptual blending and the mind’s hidden complexities. – New York: Basic Books. 2002.

[2] Гальпериным И.Р.Очерки по стилистике английского языка / И.Р. Гальперин. – М.: Изд-во литературы на иностранных языках, 1958.-462 с.